



XALQARO TAHDIDLAR VA TASHQI OMILLAR KONTEKSTIDA YOSHLAR EKSTREMIZMI MUAMMOSI

Husanboev Sardor Abdurakimovich

O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada yoshlar orasida ekstremizmning tarqalishiga ta'sir etuvchi tashqi omillar tahlil qilingan. Jahon miqyosida yuz berayotgan geosiyosiy qarama-qarshiliklar, axborot xurujlari, mafkuraviy bo'shliq, internet orqali radikal g'oyalarning tarqalishi va xalqaro ekstremistik markazlarning targ'iboti yoshlar ongiga jiddiy salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Muallif xalqaro ekstremizmni rivojlantiruvchi iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy va mafkuraviy omillarni tahlil qilar ekan, yoshlarni bunday tahdidlardan himoya qilishda ta'lim, ma'rifat va axborot xavfsizligini ta'minlashning o'rnni alohida ta'kidlaydi.

Kalit so'zlar: yoshlar, ekstremizm, terrorizm, tashqi omillar, xalqaro tahdidlar, axborot xuruji, mafkuraviy bo'shliq, mafkuraviy immunitet

ПРОБЛЕМА МОЛОДЕЖНОГО ЭКСТРЕМИЗМА В КОНТЕКСТЕ МЕЖДУНАРОДНЫХ УГРОЗ И ВНЕШНИХ ФАКТОРОВ

Хусанбоеv Сардор Абдукаримович

соискатель Академии МВД Республики Узбекистан

Аннотация: В данной статье рассматриваются внешние факторы, способствующие распространению экстремизма среди молодежи. Анализируются геополитические конфликты, информационные атаки, идеологический вакuum и влияние радикальных идей через интернет, а также



пропаганда со стороны международных экстремистских центров. Автор обращает внимание на экономические, политические, социальные и идеологические причины роста международного экстремизма, подчёркивая важность просвещения, укрепления идеологического иммунитета и обеспечения информационной безопасности в профилактике этих угроз.

Ключевые слова: молодёжь, экстремизм, терроризм, внешние факторы, международные угрозы, информационные атаки, идеологический вакуум, идеологический иммунитет

THE PROBLEM OF YOUTH EXTREMISM IN THE CONTEXT OF INTERNATIONAL THREATS AND EXTERNAL FACTORS

Khusanboev Sardor Abdurakimovich

*applicant of the Academy of the Ministry of Internal Affairs of the Republic
of Uzbekistan*

Annotation: This article analyzes external factors contributing to the spread of extremism among youth. It explores the impact of geopolitical conflicts, information attacks, ideological vacuum, dissemination of radical ideas through the internet, and propaganda by international extremist groups. The author highlights the economic, political, social, and ideological causes of global extremism, emphasizing the role of education, enlightenment, and ensuring information security as key measures in protecting youth from such threats.

Keywords: youth, extremism, terrorism, external factors, international threats, information attacks, ideological vacuum, ideological immunity



Ekstremizm va uning eng og‘ir va xavfli ifodasi hisoblan mish terrorizm, jamiyatda tasodifiy ravishda yoki yaqinda paydo bo‘lgan hodisa emas, balki tarixiy jihatdan ancha ilgaridan mavjud bo‘lgan, inson sivilizatsiyasi taraqqiyoti bilan birga shakllanib, davrlarga mos ravishda turli ko‘rinishlarda namoyon bo‘lib kelgan murakkab ijtimoiy-siyosiy illatdir. Turli tarixiy bosqichlarda ekstremistik harakatlar iqtisodiy inqirozlar, ijtimoiyadolatsizlik, din va e’tiqod masalalari, milliy yoki siyosiy mustaqillikka intilishlar bilan bog‘liq holda yuzaga kelgan. Ularning umumiy xususiyati — mavjud tartibga, tuzumga, jamiyatdagi muvozanat va qadriyatlarga qarshi murosasiz, keskin va aksariyat hollarda zo‘ravonlikka asoslangan yondashuvni tanlashida namoyon bo‘ladi.

Bugungi kunda ekstremizm nafaqat mahalliy, balki xalqaro darajadagi jiddiy tahdidiga aylangan bo‘lib, ular turli mafkuraviy, diniy, siyosiy niqoblar ortida global xavf manbai sifatida namoyon bo‘lmoqda. Shu sababli, bu illatga qarshi kurashda tarixiy saboqlarni hisobga olgan holda, uning ildizlarini chuqur anglash va jamiyatning har bir qatlamida sog‘lom dunyoqarash, mafkuraviy barqarorlik va ma’naviy immunitetni shakllantirish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

Yoshlar orasida ekstremizmning kirib kelishi turli omillar bilan bog‘liq bo‘lib, ularni umumiy tarzda mafkuraviy, ijtimoiy-iqtisodiy, psixologik va tashqi ta’sirlar deb guruhlash mumkin. Mafkuraviy va ma’naviy bo‘shliq, milliy qadriyatlarning yetarlicha singdirilmasligi, hayotdagi maqsad va yo‘nalishning noaniqligi yoshlarni yot g‘oyalarga moyil qilishi mumkin. Ishsizlik, ta’lim sifatining pastligi, moddiy ehtiyoj vaadolatsizlikdan kelib chiqqan norozilik hissi ham radikal ta’sirlarga olib keladi. Yoshlarning ruhiy zaifligi, e’tirofga bo‘lgan ehtiyoji, tanqidiy fikrlash ko‘nikmasining shakllanmagani ham ularning manqurtlashuvini tezlashtiradi.

Shuningdek, siyosiy va huquqiy savodxonlikning pastligi, tashqi da’vatchilarining internet orqali olib borayotgan targ‘iboti, qonunsiz diniy materiallarning tarqalishi ham bu jarayonda katta rol o‘ynaydi. Bunday tahdidlarga



qarshi samarali kurashish uchun yoshlar o‘rtasida huquqiy, ma’naviy va tahliliy ongni yuksaltirish, sog‘lom muhit va ishonchni shakllantirish, ta’lim hamda tarbiya jarayonlarini takomillashtirish dolzARB hisoblanadi.

Yoshlar ekstremizmining yuzaga kelishida tashqi omillar muhim o‘rin tutadi. Jahon miqyosida yuz berayotgan geosiyosiy o‘zgarishlar, ayniqsa, xalqaro zo‘ravonlik, diniy mutaassiblik va siyosiy muqobil kuchlar tomonidan yuritilayotgan g‘arazli targ‘ibotlar yoshlar ongiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Ayrim tashqi ekstremistik tashkilotlar internet, ijtimoiy tarmoqlar va messengerlar orqali yoshlarga yot g‘oyalarni turli shakllarda yetkazishga urinadi.

Shuningdek, xalqaro mojarolar, xususan Yaqin Sharq, Afg‘oniston va boshqa nizoli hududlardagi voqealar yoshlarda nafaqat qiziqish, balki noto‘g‘ri hamdardlik tuyg‘ularini ham uyg‘otishi mumkin. Tashqi siyosiy kuchlar tomonidan milliy qadriyatlar, diniy e’tiqodlar va hayotiy nuqtai nazarlarni buzib talqin qilish, yoshlarning ruhiy muhitiga ta’sir o‘tkazib, ularni radikal guruhlarga moyillashtirishi mumkin. Bundan tashqari, xalqaro media maydondagi manipulyatsiya, globallashuv jarayonida yuzaga kelayotgan madaniy nizolar va yoshlarning o‘z milliy asoratidan uzoqlashishi ham tashqi tahdidlarning ta’sirini kuchaytiradi. Shu sababli, tashqi omillarga qarshi samarali mafkuraviy immunitet yaratish va axborot xavfsizligini ta’minalash juda muhim vazifa hisoblanadi.

Yoshlarning asotsial tarbiyasi ekstremistik yo‘nalishida ega bo‘lgan va aformol guruhlar safini to‘ldirishining kriminogen faktlari bo‘lib turibdi. Oxirgi paytda bu muammo alohida dolzARB bo‘lib bormoqda. Turli xil manbalarga ko‘ra aformol yoshlar guruhlari va ekstremistik yo‘nalish harakatlarining jami asosiy doimiy shaxsiy tarkibi yarim millionni tashkil etadi. Ularning noqonuniy faoliyati katta tahdidni keltirib chiqarayapti. Ammo buning xavfliligi faqatgina sonlar o‘sishida emas balki o‘sib kelayotgan avlodni egallab kelayotgan ijtimoiy kasallikni kuchaytirgani xamdir [1].



Irratsional ekstremizm asosiy maqsadlarga erishish uchun zo'ravonlik, mantiqqa zid usullardan foydalanish bilan tavsiflanadi: vandalizm ko'rinishidagi yoshlar ekstremizmi, asossiz qotillik ko'rinishidagi psixopatik ekstremizm bunga misol bo'la oladi. Aksariyat mualliflar ekstremizmning quyidagi asosiy shakllari (shuningdek, terrorizm ekstremizm shakli sifatida) mavjudligini tan oladilar: siyosiy, milliy (millatchilik) va diniy [2].

Ekstremizmning yoshlar orasida avjiga chiqishiga ta'sir etuvchi tashqi omillarni tahlil qiladigan bo'lsak, ularning zamirida xalqaro siyosiy zo'riqishlar, global axborot xurujlari, yot g'oyalarni targ'ib qiluvchi tashqi markazlar faoliyati va internet orqali radikal g'oyalarning tizimli tarqatilishi kabi jiddiy tahdidlar mujassam.Jumladan,

1. Avvalo, sobiq Sovet Ittifoqining parchalanishi ayrim terrorchilarning birlashishiga va diniy xalifalik o'rnatishga intilayotgan kuchlarning jipslashuviga olib keldi.

2. Bu muammo, shuningdek, "xalqaro terrorizm" yoki "xalqaro ekstremizm" tushunchasiga hanuzgacha umumiyligi ta'rif berilmaganligi bilan ham izohlanadi. Ba'zan shunday holatlар uchraydiki, ayrim davlatlar ekstremistik harakatlarini "ozodlik harakatlari" sifatida talqin qilib, ulardan o'z geosiyosiy maqsadlarida muayyan davlatga siyosiy bosim o'tkazish uchun foydalanadilar.

3. Xalqaro ekstremizmni ba'zan "ikki tomonlama standartlar" siyosati deb atash holatlari mavjud, bu esa ekstremistlarga o'zlarining xudbinlik maqsadlariga erishish imkonini beradi.

4. G'arb mamlakatlaridagi ma'naviy tanazzul va Sharq qadriyatlariga, ayniqsa, islom diniga nisbatan haqoratli munosabat ekstremistik kuchlar uchun bahona bo'lib xizmat qilmoqda. Masalan, Muhammad payg'ambarga chizilgan karikaturalar terrorizmga qarshi kurashayotgan odamlarning diniy qadriyatlarini mensimaslik hisoblanadi.



5. Osiyo va Afrikani mintaqalarida G‘arb urf-odatlarining o‘rnashishi, mahalliy aholining ekstremistik kuchlarning paydo bo‘lishiga moyilligi kuzatilmoxda. Dastlab ular o‘z mustaqilligini saqlab qolish, G‘arb ta’siriga berilmaslik va qadimiy islomiy g‘oyalarni qayta tiklashga jon-jahdlari bilan harakat qilgan bo‘lsalar, endilikda ommaviy madaniyat qadriyatlarini osongina qabul qilmoqdalar.

Tahlillar shuni xulosa qilish mumkin-ki, xalqaro ekstremizmning avj olishiga geosiyosiy qarama-qarshiliklar, ikki tomonlama standartlar siyosati, madaniy hurmatsizlik va turli mintaqalarda G‘arb qadriyatlarining majburiy ravishda singdirilishi kabi tashqi omillar jiddiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Sobiq Sovet Ittifoqining parchalanishi va xalqaro ekstremizmga aniq va yagona ta’rifning yo‘qligi radikal guruhlarning uyushishi uchun qulay muhit yaratdi. Shuningdek, Islom dini va Sharq qadriyatlariga nisbatan hurmatsiz munosabat ekstremistik kuchlarga o‘z g‘oyalarini oqlash va tarqatish uchun bahona bo‘lib xizmat qilmoqda. Bunday sharoitda xalqaro miqyosda ekstremizmga qarshi kurashda hamjihatlik, obyektiv yondashuv va madaniy bag‘rikenglik alohida ahamiyat kasb etadi.

Yuqorida aytilganlardan tashqari, xalqaro ekstremizmning rivojlanishiga ta’sir ko‘rsatuvchi omillarni quyidagicha ham tasniflash mumkin: iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy va g‘oyaviy.

Iqtisodiy omillar ichki ham, tashqi ham bo‘lishi mumkin. Ular diniy ekstremizm va xalqaro terrorizm faoliyati uchun zarur bo‘lgan moddiy, moliyaviy, harbiy va texnik resurslarni ta’minlaydi.

Siyosiy omillar (ham ichki, ham tashqi) ta’sirida ekstremistlar o‘z faoliyatlarida muayyan yutuqlarga erishmoqdalar. O‘z navbatida, geosiyosiy maqsadlarga erishishda “qo‘sish standartli” yondashuvlarning paydo bo‘lishi xalqaro terrorizm va ekstremizmning xususan yoshlar orasida diniy ekstremizmning vujudga kelishiga katta ta’sir ko‘rsatmoqda.



Ijtimoiy omillar. Bu ko‘proq odamlarning turmush darajasiga nisbatan xos bo‘lib, shu borada namoyon bo‘ladi. Ta’lim, xizmat ko‘rsatish, mehnat va dam olish sohalarida bir qator muammolarning (ishsizlik, kambag‘allik,adolatsizlik, korrupsiya) keskinlashuvi hamda ularni o‘z vaqtida hal etish imkoniyatining yo‘qligi aholining noroziligini kuchaytiradi.

Mafkuraviy omillar. Ekstremistlar faoliyatining faollashuvi diniy va dunyoviy ta’limotlarni yetarli darajada tushunmaslik bilan ham bog‘liq. Ushbu xususiyatlarni aniqlash ularga qarshi kurashning asosiy yo‘nalishlarini belgilash va tegishli chora-tadbirlarni ishlab chiqishda muhim ahamiyatga ega.

Yuqorida berilgan fikrlar asosida xalqaro ekstremizmning rivojlanishiga iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy va mafkuraviy omillar murakkab tarzda ta’sir ko‘rsatadi degan xulosaga keldik. Demak, iqtisodiy resurslar ekstremistik guruhlarni moliyalashtirish imkonini bersa, siyosiy qarama-qarshiliklar va ikki tomonlama standartlar ularning harakatlarini oqlash uchun sharoit yaratadi. Ijtimoiy adolatsizlik, ishsizlik va kambag‘allik esa aholi, ayniqsa yoshlar orasida norozilik kayfiyatini kuchaytiradi. Mafkuraviy jihatdan esa diniy va dunyoviy bilimlar yetishmasligi ekstremistik g‘oyalarga moyillikni oshiradi. Shu bois, ushbu omillarni aniqlash va tahlil qilish, samarali profilaktika va kurash choralarini belgilashda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Ekstremizm bilan bog‘liq jinoyatlarning sabab va shart-sharoitlarini shartli ravishda quyidagilarga bo‘lib o‘rganish tavsiya etiladi: – jinoyat sodir etilgan vaqtda ushbu jinoyat sodir etilishiga turtki bo‘lgan obyektiv sabab va shart-sharoitlar, ya’ni qonunchilikdagi bo‘shliqlar. Muayyan ijtimoiy munosabatni muhofaza qilish tizimidagi kamchiliklar, jamiyatda qaror topgan ijtimoiy-siyosiy, huquqiy vaziyatlar; – ekstremizm bilan bog‘liq jinoyatlarni sodir etgan shaxsning subyektiv omillari, ya’ni uning ruhiy-psixologik holati, oson yo‘l bilan daromad topish [3].



Davlatlarning xavfsizligi va barqarorligiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri yoki bilvosita tahdid solayotgan bir qator diniy ekstremistik va terroristik tashkilotlarning dasturlari shuni ko‘rsatmoqdaki, bu tashkilotlarning umumiy maqsadi o‘rnatilgan mustaqil demokratik davlat tizimini ag‘darib tashlash va uni jamiyat uchun begona va xavfli bo‘lgan o‘z mafkuralariga asoslangan boshqa davlat tuzumi bilan almashtirish hisoblanadi. Bu maqsadga erishish uchun ular quyidagi umumiy vositalardan foydalanadilar:

- zo‘ravonlik, jamoatchilikni dahshatga solish va o‘z hokimiyatini namoyish etish orqali hukumatga tazyiq o‘tkazish;
- turli usullar bilan buzg‘unchilik faoliyatini amalga oshirish va mamlakat hokimiyatini ag‘darib tashlash: sanoat va qishloq xo‘jaligi resurslarini degradatsiya qilish va uni yemirilishiga olib kelish orqali;
- hukumat va uning fuqarolarini, hukumatning diniy siyosatini badnom qilish, ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlar orqali yolg‘on, noxolis fikrlarni tarqatish;
- mamlakatda beqaror vaziyatni yuzaga keltirish va undan o‘z maqsadlari yo‘lida foydalanish, dinlararo va millatlararo nizolarni avj oldirish, ayrimlarini jismoniy yo‘q qilishni namoyish etish;
- jamiyatda shakllangan axloqiy qadriyatlarni buzib ko‘rsatish orqali fuqarolarning ongiga ekstremistik g‘oya va maqsadlarni bosqichma-bosqich “singdirish”. Shu tarzda, o‘z maqsadlariga (diniy ekstremizm, terrorizm, “rangli inqilob”) erishish uchun kerakli vaqtida ijtimoiy ongni osonlik bilan boshqarish va hokazo.

Yangi texnologiyalar tufayli ekstremistik g‘oyalar o‘z auditoriyasiga oson yetib bormoqda. Keng ommaviy auditoriya dunyoda sodir bo‘layotgan voqealarni turli ekstremistik va terroristik tashkilotlar mohirona foydalanayotgan ommaviy axborot vositalari orqali idrok etadi va tushunadi.



O'tkazilgan tahlillar shuni ko'rsatmoqda-ki, ko'p hollarda ekstremistik oqimlarni yuzaga kelishi yoki yoshlarni unga kirib qolishida diniy sababdan ko'ra ko'proq ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy omillar sabab bo'ladi. Muayyan bir guruhlar tez boyib ketishni xohlaydi, shu bois qurol yarog', giyoxvand moddalar sotib, birdaniga katta foyda ko'rmoqchi bo'ladi. O'zlarining maqsadiga erishish yo'lida fitna-fasod urug'ini sochadi. Bunda asosan iqtisodiy maqsadlar ko'zlangan bo'ladi.

Birinchidan, "siyosiy sabab"lar tufayli. Bular qatoriga dastlab paydo bo'lgan "Al-xorijiyalar" va hozirgi zamonning "Hizb ut-tahrir" kabi oqimlarini kiritish mumkin. Ma'lumki, hanuzgacha Isroil va Falastin davlatlari mojarosi hal qilinmaganligi sababli, mazkur mintaqadan ko'plab ekstremistik oqimlar yuzga keldi.

Falastin chegarasi tutashmagan ikki hududga ya'ni Yordan daryosining g'arbiy sohili va G'azo sektoriga bo'lingan. 2007 yildan keyin Falastin davlatining har bir qismi o'z hukumatiga ega, xalqni siyosiy kuchlar shaklida boshqaradi. G'arbiy sohilda Falastin milliy ma'muriyati (FMM) tashkil etilgan, G'azoda esa XAMAS (Islomiy qarshilik harakati) yetakchilik qilib kelmoqda [4]. Hizbut tahrir ham ana shunday oqimlardan biri hisoblanadi. Dastlab u o'z oldiga Falastinni ozod qilishni maqsad qilib olgan bo'lsa, keyinchalik o'z maqsadiga erisha olmaganidan keyin "butun dunyo musulmonlarining davlati" xalifalikni tuzishni maqsad qilib qo'ydi.

Ikkinchidan, ijtimoiy omil ham bunday oqimlarning vujudga kelishiga sabab bo'lmoqda. Bunga misol qilib, ijtimoiy, diniy va siyosiy omillar ta'sirida paydo bo'lgan diniy oqimlarni misol keltirish mumkin.

Aynan o'sha davrda jamiyatda islom ta'limotiga zid bo'lgan ko'plab urf-odatlar keng tarqalgan edi. Qabrlarga sig'inish va fol ochish kabi odatlarning yoyilishiga qarshi chiqqan vahhobiylilik, bu masalada islom ta'limoti



ko‘rsatmalaridan ham o‘tib ketib, hatto payg‘ambar sahabalarining qabrlarini yer bilan yakson qilish darajasiga borib yetgan.

Uchinchidan, fuqarolar islomga zid hayot tarzi va fikrlarni musulmonlar yashaydigan o‘lkalarda so‘nggi ikki asrda keng tarqalishi ekstremistik oqimlarni yuzaga kelishiga sabab bo‘lish mumkin.

To ‘rtinchidan, ba’zi bir musulmon ulamolarning islomdan uzoqlashib, hatto imon nimaligini bilmaydiganlar borasida beparvolarcha yondoshuvlari, din va millat g‘amini yemasliklari ham bunga sabab bo‘ladi.

Ma’lumki, yigirma birinchi asr yoshlari globallashuv jarayoni shiddatli tus olgan zamonda yashamoqda va ularga turli ko‘rinishdagi g‘oyaviy xurujlar xavf solmoqda. Bir tomondan ekstremistik ruhdagi oqimlar, boshqa tomondan missionerlar va olomoncha madaniyat targ‘ibotchilari yosh avlod ongiga o‘zlarining puch g‘oyalari va aqidalarini singdirish, milliy va diniy qadriyatlarimizdan ayirishga muttasil harakat qilmoqdalar.

Natijada, yetarli darajada ilmga ega bo‘lmagan ba’zi yoshlar sof islom ta’limotidan og‘ishib, ularning nayranglariga aldanib qolmoqdalar. Yana ba’zilari esa, G‘arb davlatlarining moddiy taraqqiyoti go‘yoki ularning madaniyatiga asoslangandek xayol qilib, kiyinishda, o‘zini tutishda, hatto fikrlashda ham milliylik va diniylikka yot usullarni ma’qul ko‘rmoqda [5].

Beshinchidan, adashgan oqimga ergashganlarning ko‘pchiligi islomiy ilmlarni yuzaki egallab olgan fiqh, usuli fiqh, til qonun qoidalari [6]ni yaxshi bilmaganidan oyat va hadislarni o‘z manfaatlari yo‘lida sharhlashadi.

Yuqoridagilardan ko‘rinib turibdi-ki, bugungi kunda ba’zi yoshlar turli xil manfaatdor doiralar tomonidan tuzilgan ekstremistik guruhlarning soxta g‘oyalari va yolg‘on va’dalarining ta’siriga tushib, o‘z hayot yo‘llarini xatar ostiga qo‘ymoqdalar. Ular ma’rifiy saviyaning pastligi, hayotda o‘z o‘rnini topa olmagani yoki axborotni tanlab olish qobiliyati yetarli emasligi tufayli bu kabi xavfli



oqimlarga aldandilar. Afsuski, bu holat faqatgina ularning shaxsiy taqdiriga emas, balki jamiyatimiz tinchligi va barqarorligiga ham jiddiy tahdid solmoqda.

Radikalizm va ekstremizm zamонавија jamiyatning muvozanatini izdan chiqaradigan, barqaror rivojlanishni izdan chiqarishi mumkin bo‘lgan eng xavfli illatlardan biridir. Ular har qanday mustahkam, kuchli va taraqqiy etuvchi davlatni zaiflashtirish, jamiyatda o‘zaro ishonchni yo‘qotish, millat birdamligini parchalash, o‘tmishdan meros bo‘lib kelayotgan ma’naviy qadriyatlarni inkor etish va eng muhimi, kelajak avlod taqdiriga jiddiy salbiy ta’sir ko‘rsatish salohiyatiga egadir. Shu bois, radikalizm va ekstremizm faqat huquqbuzarlik yoki jinoiy xattiharakat sifatidagina emas, balki keng ma’noda — jamiyatning ma’naviy, siyosiy va madaniy xavfsizligiga qarshi qaratilgan jiddiy mafkuraviy tahdid sifatida qaralishi lozim.

Bunday tahdidlarning oldini olishda faqat huquqni muhofaza qiluvchi idoralargina emas, balki keng jamoatchilik, xususan, millat taqdiriga befarq bo‘limgan ziyorilar, ta’lim va ma’naviyat sohasi vakillari, faol yoshlar, davlat va nodavlat tashkilotlari, oila va mahalla institutlari ham javobgarlikni his qilib, hamjihatlikda harakat qilishlari zarur. Ushbu illatga qarshi samarali profilaktika olib borish — uning sabablarini chuqur anglash, oqibatlarini oldindan his etish, tizimli tahlil asosida maqsadli choralar ko‘rish va eng muhimi, yosh avlod ongida mafkuraviy immunitetni shakllantirishga xizmat qiladi.

Shu asosda xulosa qilish mumkinki, ekstremizmga qarshi samarali kurash faqatgina huquqiy va kuch ishlatuvchi yo‘llar bilan emas, balki siyosiy barqarorlik, iqtisodiy adolat, ijtimoiy farovonlik, diniy-mafkuraviy soflik, hamda ta’lim va tarbiya tizimining mustahkamlanishi orqali amalga oshirilishi lozim. Bu maqsadda, yoshlar orasida sof diniy ta’limotni ilmiy asosda tushuntirish, fuqarolarni axborot xurujlaridan himoya qilish, mafkuraviy immunitetni shakllantirish va jamiyatda adolat, tenglik, imkoniyatlar barobarligini ta’minlash zarur.



Foydalanilgan adabiyotlar

- 1 Ibragimov A. A. Yoshlar orasida ekstremizmni oldini olishning yangicha mexanizmlari Page 35 CENTRAL ASIAN JOURNAL OF ACADEMIC RESEARCH IF = 5.441 Volume 3, Issue 04, Part 3 April 2025 www.in-academy.uz
2. Iqboljonova G. (2025). EKSTREMIZM VA TERRORIZM: NAZARIY TASNIF VA TAHLIL. Ilm Fan Taraqqiyotida Raqamli Iqtisodiyot Va Zamonaviy ta'limning o'rni Hamda Rivojlanish Omillari, 6(1), 77–84. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/itrizthro/article/view/91312>
3. Nurumbetova , S. EKSTREMISTIK FAOLIYAT BILAN BOG‘LIQ JINOYaTLARGA JALB ETILGAN AYOLLAR JINOYaTINING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI. Obshchestvennye nauki v sovremennom mire: teoreticheskie i prakticheskie issledovaniya, . (2025). 4(5), 84–87. izvlecheno ot <https://inlibrary.uz/index.php/zdif/article/view/73897>
4. Rahimov S., Isroil – Falastin: Mojaroning tarixi, sababi va ehtimoliy oqibati.2023. https://uza.uz/oz/posts/isroil-falastin-mojaroning-tarixi-sababi-va-ehtimoliy-oqibati_551272
5. Nozomov Sh. Ommaviy madaniyat ta'siriga tushib qolmang!. 2019. <https://nasafziyo.uz/index.php?newsid=165>
6. **Abdumannonov A.** Usulul fiqh ilmi va uning tarixi. <https://kukaldosh.uz/18/05/2022/8250>